



International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies

International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies - is an international conference platform under open access policy. The conference is led by international expert members who take an objective approach to peer review, ensuring each research paper is reviewed, edited by authors and evaluated on its own scholarly merits and research integration. Publishing and joining on the proceeding of the International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies will ensure publishing experience and indexing possibilities on various global indexing.

Alloksanli diabetda kalamushlarning ayrim qon ko'rsatkichlariga *F. foetida* ekstraktining ta'siri

N.F. Qiyomova.

Tayanch Doktorant. Qarshi Davlat Universiteti, Qarshi

E-mail: nozikul.kiyomova.91@mail.ru

INTRODUCTION

Yer yuzida ko'plab kam va o'rta daromadli oilalar, ayniqsa chekka qishloqlarda turli kasalliklarini davolashda birinchi yordam yoki profilaktika sifatida dorivor o'simliklardan foydalanishadi. Shu sababli ham biz o'z tadqiqotlarimizda ko'plab davlatlarda kundalik turmush tarzida ziravor sifatida ozuqaga qo'shib iste'mol qilib kelingan, dorivorlik xususiyatlari sifatida turli tadqiqotlar olib borib, samarali natija olingan *F. foetida* o'simligidan ajratib olingan ekstraktning ahamiyatini o'rgandik.


Eksprementlarimiz 3 ta guruhga bo'lindi. Birinchi guruhga alloksanli diabet chaqirilgan kalamushlarga *F. foetida* ekstraktining 25 mg/kg dozasi. Ikkinchi guruhga *F. foetida* ekstraktining 50 mg/kg dozasi intragastral yuborilgan kalamushlar kiritildi. Uchinchi guruhga esa fiziologik eritma yuborilgan nazorat guruhidagi kalamushlar kiritildi. Kalamushlarning ovqatlanishi standart vivariy sharoitida bo'lib, suv ichishi cheklanmagan edi.

Alloksanli diabet chaqirilgan kalamushlarga *F. foetida* ekstraktining ta'siri o'rganilganda, kalamushlarning qon ko'rsatkichlari, *F. foetida* ekstraktining diabet chaqirilgan kalamushlarda qon ko'rsatkichlariga ta'siri qon plazmasidagi glyukoza, xolesterin miqdorining o'zgarishi asosida baholandi.

Natijalar. Glyukoza.

1-rasmda ko'rsatilganidek alloksan bilan diabet chaqirilgan kalamushlarning qonida glyukoza nazoratga nisbatan kuzatuvning 14-kuni 2,5 martaga ortib, kuzatuvning 28-kuni ham usha darajada saqlandi. *F. foetida* ekstrakti intragastral ravishda alloksanli diabet chaqirilgan kalamushlarga 25 mg/kg dozasi yuborilgandan keyin kuzatuvning 14-kuni diabetli kalamushlarga nisbatan 2,1 barobar ($>0,001$), 50 mg/kg yuborilganda 2,4 barobar ($>0,001$) kamaytirdi. Har ikkila dozada fitopreparatdan kasallangan kalamushlarga 28 kun davomida

yuborilganda ham hayvonlarda glukoza darajasi 14-kunlik ta'sirlangan muddatdagidan farq qilmadi.



3.1-rasm *F. assafoetida* ekstraktining Alloksan diabetli kalamushlarda qondagi glyukoza faolligiga (mkmol/min/g oqsil) ta'siri (M±m; n=6)

Izoh. Pozitiv nazorat—soqlom kalamushlar,

Negativ nazorat- diabet bilan kasallangan kalamushlar

D+FA 25mg/kg - diabetli kalamushlarga 25 mg/kg dozada yuborilgan hayvonlar guruhi;

D+FA 50mg/kg – diabetli kalamushlarga 50 mg/kg dozada yuborilgan hayvonlar guruhi;

**.-P>0,01,*- P>0,05 pozitiv nazoratga nisbatan;

++- P>0,01 negativ nazoratga nisbatan

Demak. *F. foetida* ekstrakti 25 va 50 mg/kg dozasiida yuborilgandan so'ng diabetga chalingan kasallanish qonida glyukozaning miqdori keskin kamayadi. Gipoglikemiyaning korreksiyasida moddaga va dozaga bog'liklik kuzatilmadi.

Xolesterin.

Alloksan diabet chaqirilgan kalamushlarda xolesterinning miqdori kuzatuvning 14-kuni 1,7, 28-kuni esa 1,9 barobarga ortib ketdi. Diabetli kalamushlarga *F. foetida* ekstrakti 25 mg/kg dozada yuborilgandan so'ng xolesterin miqdori kuzatuvning 14-kuni pozitiv nazorat kattaliklardan farq qilmadi va negativ nazoratdagi parametrlarda 1,5 barobar kam edi. eksperimentning 28-kuni ham xolesterinning miqdori usha darajada qolaverdi. Diabet chaqirilgan kalamushlarga ekstrakt 50 mg/kg dozada jo'natilganda xolesterin miqdori yanada kamaysa ham, sog'lom hayvonlarning darajasida qayd etildi.

Shunday qilib, eksperimental diabet kalamushlarda xolesterin miqdorini keskin oshishiga olib keldi. *F. foetida* ekstraktini surunkali ravishda kasallanga kalamushlarga intragastral ravishda yuborilishi diabetli kalamushlarning qonidagi xolesterin miqdorini me'yor darajasigacha keltirdi. *F. foetida* ekstraktining dozaga bog'liqlik va ta'sir etish muddatga bog'liklik kuzatildi.

Xulosa.

F. foetida ekstraktining surunkali yuborilishi diabetga bog'liq bo'lgan giperglikemiya, giperxolesterinomiya korreksiyalaydi.

References

1. Rahbarian R., Sadooghi S.D. Investigating the effects of aqueous extract of asafoetida resin on the serum level of insulin and blood glucose in type 1 diabetic rats. // J Shahrekord Univ Med Sci. -2014. -V16.-№3. -P.16-21.
2. Ghorbani A. Mechanisms of antidiabetic effects of flavonoid rutin. // Biomed Pharmacother. -2017. -№96. P.305-12.
3. Abu-Zaiton A.S. Anti-diabetic activity of Ferula assafoetida extract in normal and alloxan-induced diabetic rats. // Pak J Biol Sci.- 2010. -V13. -№ 2. -P.97-100.
4. Iranshahi M., Alizadeh M. Antihyperglycemic effect of asafoetida (Ferula assafoetida oleo-gum-resin) in streptozotocin-induced diabetic rats // World App Sci J. -2012. -V17. -№2. -P.157-62.